

## IQTISODIY O'SISH MODELLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA MUHIMLIGI

Toshtemirov Muhammad

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Umirov Abdisalom To'rayevich dotsent,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasи

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda iqtisodiy o'sish modellarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanishidagi, hamda mamlakatning iqtisodiy holatini yuqori pog'onaga ko'tarishidagi ahamiyati keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, iqtisodiy modellar, mamlakat iqtisodiyoti, iqtisodiy modellar ahamiyatliligi.

**Abstract:** In this thesis, the importance of economic growth models in the growth and development of the country's economy, as well as in raising the country's economic status to a higher level, is mentioned.

**Key words:** Economy, economic models, country's economy, importance of economic models.

**Аннотация:** В данной тезис отмечается важность моделей экономического роста в росте и развитии экономики страны, а также в повышении экономического статуса страны на более высокий уровень.

**Ключевые слова:** Экономика, экономические модели, экономика страны, значение экономических моделей.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyatining boshlang'ich yillaridanoq yurtimizning iqtisodiy holatini yaxshilash va jahon hamjamiyatining oldidagi nufuzini ko'tarish uchun harakatni boshlab yubordi. Buning isboti o'laroq biz "Harakatlar strategiyasining" besh ustuvor yo'nalishitidan biri "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish" ni ko'rsatishimiz mumkin. Iqtisodiy modellar haqida so'z ketar ekan, birinchi prezidentimizning "O'zbek modeli" ni ham eslatib o'tishimiz joizdir.

Iqtisodiyot tushunchasiga turli xil ta'riflar berib o'tilgan. Umumiyl ma'noda iqtisodiyot bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish sohasi. Umuman olganda, u tanqis resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi. Muayyan iqtisodiyot — bu asosiy omillar sifatida uning madaniyati, qadriyatlari, ta'limi, texnologik evolyutsiyasi, tarixi, ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzilishi, huquqiy tizimlari va tabiiy resurslarini o'z ichiga olgan jarayonlar to'plamidir. Bu omillar ma'nno-mazmunni beradi va iqtisodiyot sharoit va parametrlarni belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy soha — bu o'zaro bog'liq bo'lgan inson amaliyotlari va operatsiyalarining ijtimoiy sohasi bo'lib, u bir necha sohalar bilan chambarchas bog'liq.

Mamlakat iqtisodiyodi bir mamlakat yoki davlatning barcha iqtisodiy faoliyatlarini, resurslarini, daromadlarini, tizimlarini va boshqa iqtisodiy elementlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy tizimdir. Iqtisodiy o'sish modellarning ma'nosi va tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, iqtisodiy o'sish — bu obyektiv qonuniyat bo'lib, aholining o'sishi, FTT, ishlab chiqarish hajmining ma'lum bir vaqt davomida o'sishi kabi jarayonlar bilan bog'langan. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish nafaqat ishlab chiqarishning o'sishini, balki iqtisodiyot potensialining o'sishini ham bildiradi.

Iqtisodiy o'sish modellaring mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va o'rniغا keladigan bo'lsak, iqtisodiy o'sish modellari bir nechta jabhalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, iqtisodiy modellar natijaviylik xususiyatiga ega bo'lib, bunda iqtisodiy o'sish modellari mamlakat iqtisodiyotidagi tashkil etishgan jarayonlarni va o'zgaruvchanlarni tahlil qilishga yordam beradi. Ularning yordamida, mamlakatning daromadi, narxlari, pul birligining o'zgarishi va boshqa asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar haqida xulosalar qabul qilinadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish modellari siyosiy ahamiyat ham kasb etadi. Iqtisodiy o'sish modellari mamlakat rahbariyati uchun qarorlarni qabul qilishda yordam beradi. Masalan, ishlab chiqarish miqdorining o'sishi yoki chet el tijoratini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan optimal siyosatni aniqlashda bu modellardan foydalaniladi.

Uchinchidan, iqtisodiy osih modellari investitsiyalar va innovatsiyalar uchun muhimdir. Iqtisodiy o'sish modellari investitsiyalar, innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanish yo'lini ustuvor tahlil qilishda yordam beradi. Ular mamlakatda investitsiyalar, innovatsiyalar va rivojlanishni oshirishda talablar va ehtiyojlar orasidagi munosabatlarni o'rganish uchun foydalaniladi.

Keyingi muhimlik bu - iqtisodiy kuch va tartib. Modellardagi ma'lumotlar mamlakatning iqtisodiy kuchini va tartibini belgilashda yordam beradi. Bu modellarning yordamida mamlakat iqtisodiyoti rivojlanish yo'li va kelajagi uchun strategik qarorlar qabul qilish uchun lozim bo'lgan ma'lumotlar toplashadi. Shu jumladan, iqtisodiy kuch deganda, potensialni tushunishimiz mumkin. Iqtisodiy o'sish modellari sabab, davlat o'zining potensiali va kuchini qaysi soha va sektorga qaratishi kerakligini bilib olishi mumkin bo'ladi.

So'ngi muhim jihat bu – keljakni bashorotlash va xavflarni boshqarishdir. Iqtisodiy o'sish modellari mamlakat iqtisodiyotidagi risklarni tahlil qilishda yordam beradi. Ular mamlakatda sodda va ishonchli iqtisodiy atmosfera yaratish uchun risklarni tanish va boshqarishda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot rivojlanishi uchun, shu o'rinda to'gri siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilinishi uchun, iqtisodiyotning resusrlari va kuchi tog'ri yo'naltirilishi uchun iqtisodiy modellar muhimdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning PQ-4947 qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. "Макроэкономика" Н.Грегори Мэнкью
3. "Principles of Economics" by N. Gregory Mankiw, 9<sup>th</sup> chapter